

# Conference On Legal Science



№.2 (2)

**2024**

*Oybekova Shohida Shomurod qizi*

ELEKTRON TIJORAT: HUQUQIY TABIATI, TUSHUNCHASI VA  
RIVOJLANISHI..... 3-6

*Allanazarova Xavajon Axmedovna*

DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI  
HAMDA ULARDAGI BOSHQARUV MASALALARI..... 7-9

*Ergashev San'atjon Xolmurod o'g'li*

KIBER SPORT SOHASINI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY JIHATLARI.. 10-15

*Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li*

MAMLAKATIMIZDA SUD HAL QILUV QARORLARINING OCHIQLIGINI  
TAMINLASH MASALALARI VA MAZKUR MUNOSABATLAR XORIJY  
DAVLATLAR TALQINIDA..... 16-21

## **DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAMDA ULARDAGI BOSHQARUV MASALALARI**

**Allanazarova Xavajon Axmedovna**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

[xavajonallanazarova@gmail.com](mailto:xavajonallanazarova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda davlat ishtirokidagi korxonalarning o'ziga xos xususiyatlari hamda ulardagi boshqaruv masalalari tahlil qilingan. Mavzu doirasida statistik ma'lumotlar keltirilgan. Barchaga ma'lum davlat ishtirokidagi korxonalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Davlat korxonalari, davlat ishtirokidagi tijorat subyektlari, «UZ-DAEWOО», «Mersedes-Bens AT», «Do'stlik»

---

Davlat ishtirokidagi korxonalarda boshqaruv davlat ishtirokidagi korxonalar, davlat korxonalari hamda unitar korxonalar misolida ko'zga tashlanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktyabrdagi 215-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat korxonalari to‘g‘risida”gi Nizomda “davlat korxonasi - davlat mulkidagi, o‘ziga tezkorlik bilan boshqarish uchun berilgan mulk negizida tashkil etilgan davlat unitar korxonasi shaklidagi tijorat tashkilotidir, u o‘ziga birkitelgan mulkdan qonunda belgilangan doirada, o‘z faoliyati maqsadlariga, mulkdorning (yoki uning topshirig‘iga ko‘ra u vakolat bergen davlat organi - muassisning) topshiriqlariga hamda egalik qilish huquqidagi mulkning maqsadiga muvofiq mulkdan foydalanishni va uni tasarruf etishni amalga oshiradi” deb ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi “davlat korxonasi” tushunchasining mavjud ta’rifi korxonaning faqat mulkka egalik nuqtai-nazaridan davlatga tegishliligini aks ettiradi. Haqiqatda davlat egaligida bo‘lgan tijorat subyektlarining ko‘lami va mohiyatini qamrab olmaydi.

Korxona faoliyatini boshqarishda boshqa turdagи ta’sir o‘tkazish va nazorat instrumentlari inobatga olinmaydi va ularni davlat korxonasi sifatida tasniflash imkonini bermaydi. Amaliyotda turli tashkiliy huquqiy shakllarda uchraydigan

assosiatsiya, uyushma, xo'jalik boshqaruvi organi, fond, jamg'arma, kengash kabi tuzilmalar mavjudki, ularning aksariyati nafaqat tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish faoliyatiga, texnik, boshqaruva va kadrlar siyosatiga, savdo va moliyaviy oqimlariga ta'sir etadi, balki biznesga majburiy ko'rsatmalar berish, texnik va boshqa normativ talablarni tasdiqlash kabi vakolatlarga ham ega hisoblanadi.

Shu bilan birga, ta'rifdan ko'rish mumkinki, Davlat korxonalari to'g'risidagi nizomda, davlat korxonasi sifatida uning shakllaridan biri bo'lgan davlat unitar korxonalari nazarda tutilmoqda. Vaholanki, davlat korxonalari aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyat, shirkat va/yoki boshqa tashkiliy huquqiy shakllarda faoliyat olib borishi mumkin. Jumladan, O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarning (2100 ta) katta ulushi (51%) mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida (1071ta) tashkil etilgan va faoliyat olib boradi<sup>1</sup>.

Ushbu o'rinda davlat ishtirokidagi korxonalarga xos bo'lgan davlat mulki hamda davlat ulushi tushunchalariga ta'rif berib o'tsak.

Davlat mulki respublika mulkidan va ma'muriy-hududiy tuzilmalarning mulkidan (munitsipal mulk) iborat bo'lgan ommaviy mulk bo'lsa, davlat ulushi xo'jalik jamiyatlarining ustav fondlaridagi (ustav kapitallaridagi) davlat boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyyati organlariga, davlat unitar korxonalariga, davlat muassasalariga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tegishli bo'lgan aksiyalar yoki ulushlardir.

O'zbekistonda mashinasozlik sanoatini, ayniqsa, avtomobilsozlik sanoatini rivojlandi. O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasida «UZ-DAEWOO» avto ko'shma korxonasi qurilib, yengil avtomobillar ishlab chiqarila boshlandi. 1993 yili GFR bilan O'zbekiston o'rtasida shartnoma imzolanib, «Mersedes-Benz AT» korporasiyasi Xorazmda «Do'stlik» avtomobil zavodida ish boshladi. 1994 yildan boshlab yuk avtomobillarini ishlab chiqardi. 1995 yili «O'zavtosanoat» uyushmasi bilan Turkiyaning «Kochxolding» kompaniyasi o'rtasida shartnoma imzolanib, 1999 yildan Samarqandning So'g'diyona mavzeida avtobus zavodi qurilib, faoliyat yurita boshladi.

2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi.

<sup>1</sup> <https://davaktiv.uz/> ma'lumotlari asosida

So'ngra bu jarayonning miyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indekslari va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Shu o'rinda O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzlucksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganini va zarur resurslar bazasi mavjud ekanini ta'kidlash joiz.

Yuzaga kelgan barcha muammo va qiyinchiliklarga qaramay 2008-yilda iqtisodiyotning nafaqat barqaror faoliyat ko'rsatishiga, balki uning yuqori o'sish sur'atlarini izchil ta'minlashga erishildi. O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi izchil va barqaror o'sib bordi. 2008-yilda 1 milliard 700 million AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Bu 2007 yildagiga nisbatan 46 foiz ko'p.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, davlat ishtirokidagi korxonaning o'ziga xosligi ustav kapitalida davlat ulushining mavjudligi va davlat ushbu korxonaning faoliyatiga ta'sir o'tkaza olishi, tijorat va davlat maqsadlarining kombinatsiyasi: davlat ishtirokidagi korxonalar nafaqat foyda olish balki, davlat tomonidan belgilangan vazifalarni bajarish, masalan, milliy xavfsizlikni ta'minlash, strategik rivojlanish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga ham alohida ahamiyat qaratishida hamda davlat ishtirokidagi korxonalarda davlat asosiy figurant sifatida namoyon bo'lib, boshqaruvga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishida namoyon bo'ladi.

## REFERENCE

1. Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktyabrdagi 215-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat korxonalari to'g'risida"gi Nizom
2. <https://davaktiv.uz/>